



O'ZBEK TILINING KIRILL VA LOTIN YOZUVI IMLO QOIDALARINING QIYOSI

Yunus Jummayevich Davidov

Termiz davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7467371>

ARTICLE INFO

Received: 10th December 2022

Accepted: 20th December 2022

Online: 21th December 2022

KEY WORDS

Ko'chish belgisi, tutuq belgisi, chiziqcha; qo'shib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, harfiy birikma, lotin alifbosi asosidagi imlo, kirill alifbosi asosidagi imlo.

Imlo so'zi arabcha so'z bo'lib "yozish, aytib yozdirish, to'g'ri yozish degan" ma'noni anglatadi.

Imlo belgilar uch xil:

Ko'chish belgisi (') – o' va g' harflaridan keyin ishlatiladigan belgidir: bo'g'in; bo'g'in emas

Tutuq belgisi (')– unlini cho'zish(ma'no, da'vo); undosh va keyingi unlini ajratib talaffuz qilish (mas'ul, mas'ud); s va h o'rtasida kelib sh harfidan farqlashga xizmat qiladi: mas'h tortish, as'har (tong), as'hob (sohibning ko'pligi), Is'hoqov kabi.

Chiziqcha (-) – juft so'zlar, takror so'zlar tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanganda ishlatiladigan orfografik belgidir. Chiziqchani(-) tinish belgisi bo'lgan tire(-)dan farqlab ishlatishimiz shart.

O'zbek tilining kirill va lotin yozuvi imlo qoidalarini, ularning qiyosini.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kirill alifbosi asosidagi o'zbek alifbosi va lotin alifbosi asosidagi o'zbek alifbosi imlo qoidalarini o'rtasidagi ayrim farqlar keltirilgan. Ko'chish va tutuq belgisining farqi ko'rsatilgan.

1) мўъжиза, мўътадил, мўътабар kabi so'zlarda lotin yozuvidagi imlo qoidasida mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar kabi so'zlarda tutuq belgisi qo'yilmaydi.

2) Kirill alifbosi asosidagi imlo qoidalarida kundalik sanalarda (1991 йил 31 август) raqamdan so'ng chiziqcha qo'yilmasligi qoidalashtirilgan edi (1 сентябр).

Yangi tuzilgan imlo qoidalarida bir xillikka erishish uchun yuqoridagi hollarda chiziqcha qo'yilishi ko'rsatildi: 1991- yil 31- avgust.

1- sentyabr — O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami.

Izoh. Yozma ishlarda **ko'chish, tutuq, belgisi hamda chiziqchada** xato qilinsa, imlo xato hisoblanadi.

3) e harfi ifodalagan ikki tovush ikki harf bilan yoziladi: елка-yelka, қаер-qayer, Ғаниев-G'aniyev, Сафоев-Safoyev ателье-atelye.



4) Ayirish belgisi я, ю, е, ё harflaridan oldin qo'yilib, bu harflarning har biri ikki nutq tovushini (ya, yu, ye, yo) ifodalashiga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Bunday so'zlardan o'zbek tilida qo'llanadiganlari ya, yu, ye, yo harflari qo'shilmalari bilan yoziladi: объект—obyekt, съезд—syezd, разъезд—razyezd.

5) Rus tili imlosida ayrim undosh tovushlar o'rniga qarab yumshoq ham, qattiq ham talaffuz qilinadi, bu hol so'z ma'nolarini ham o'zgartiradi :уголь (кўмир) — угол (бурчак), сталь (пўлат) — стал (ўрнидан турди)

O'zbek tilida undosh tovushlarning yumshoq yoki qattiq talaffuz qilinishi ma'noviy ahamiyat kasb etmaydi. Shuning uchun yumshatish belgisi -o'zbek yozuvida ifodalanmaydi: мебель — mebel, фонарь — fonar, компьютер— kompyuter.

ь belgisi o harflaridan oldin kelganida belgi o'rniga y harfi yoziladi:павильон- pavilyon, батальон-batalyon

6) я, ю, е, ё harflari ikki tovushni, ya'ni ya, yu, ye, yo tovushlarini ifodalaydi, yangi o'zbek imlosida ham ikki harf bilan ko'rsatiladi: январь-yanvar, юбилей - yubiley,ноябрь-noyabr,

2013-yilda nashr etilgan imlo lug'atning tuzuvchilari (A.Madvaliyev, E.Begmatov; muharrir N.Mahmudov) institutning yetakchi tilshunoslari bilan maslahatlashgan holda, rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida ё, ю, я harflari bo'lgan ruscha va baynalmilal so'zlarni yangi imloda barcha o'rinlarda bir xil, ya'ni yo, yu, ya harflari bilan yozishni va shu orqali bu sohadagi har xillikni bartaraf etishni eng maqbul yo'l deb hisoblaydilar va lug'atda shunday yo'l tutadilar: sentyabr, oktyabr, byudjet stajyor, lyuks lyustra, molekulyar.

7) Kirill alifbosida Yamin, Yusuf, Yodgor kabi ismlarni qisqartirib yozilganda

ularning birinchi harfi olinadi-da, ular shartli ravishda qisqartib yozilganligi uchun nuqta qo'yiladi: Я.Курбонов, Ё.Саъдиев, Ю.Давидов.

Yangi o'zbek alifbosida esa bu tovushlarning har biri ikki harf bilan ifodalandi: я-ya, ю-yu, е-ye, ё -yo. Shunday bo'lgach, bunday ismlarni yangi alifboda qisqartib yozganda ulardagi birinchi tovushni ifodalaydigan harf yoziladi: Yamin Qurbon- Y.Qurbon, Yodgor Sa'diyev-Y. Sa'diyev, Y.Davidov.

8) Ц harfi ifodalagan nutq tovushi o'zbek tili imlosida ikki usulda beriladi:

1) s harfi bilan: a) so'z boshida: цирк -sirk, центнер — sentner, цемент -sement

b) undoshdan keyin: концерт- konsert, акция -aksiya, концепция - konsepsiya, Франция - Fransiya.

v) so'z oxirida: шприц -shpris, кварц - kvars, абзац - abzas. 2.Unlilardan keyin ts harflari qo'shilmasi bilan: лицей-litsey, милиция-militsiya, доцент-dotsent, конституция — konstitutsiya, аттестация — attestatsiya.

9) Familiya hosil qiluvchi qo'shimchalar imlosi.

A) So'z asosi sh, ch, y tovush-harflari bilan tugasa -ev (-eva), -yev (-yeva) qo'shimchalari qo'llaniladi: Toshev, Ergasheva; Qilichev; Ubayeva, Husanboyeva.

B) So'z asosi unli bilan tugasa-ev (-eva), -yev (-yeva) qo'shimchalari qo'llaniladi: Jumayeva, Soliyeva, Vafojev.

C) Boshqa o'rinlarda -ov (-ova) qo'shimchalari qo'llaniladi: Turobova, Tolibov, Abdusamadov, Latifova, Solihova

10) Bosh harflardan tuzilgan shartli qisqartmalarda sh, ch tarkibidagi ikkinchi harf bosh harf shaklida yoziladi: AQSH- AҚШ



So'z sidirg'asiga bosh harflar bilan yozilsa, sh, ch, ng tarkibidagi ikkinchi harf ham bosh harf shaklida yoziladi: TOSHKENT, QO'SHCHINOR kabi

11) Kirill alifbosidagi imlo qoidasida -r bilan tugagan asosga -r bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilsa kk tarzida (r+r=kk) yoziladi: баргга, педагокка каби.

-r bilan tugagan asosga -r bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilsa, (r+r=kk) fonetik tamoyilga ko'ra yoziladi: тоққа, боққа.

Lotin alifbosidagi imlo qoidasida -g bilan tugagan asosga -g bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilsa, (g+g=gg)

-g' bilan tugagan asosga -g bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilsa, (g'+g=g'g) morfologik tamoyilga ko'ra yoziladi: pedagogga, bargga; tog'ga, bog'ga.

12) Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra шовилламоқ, ловилламоқ, гувилламоқ fe'llarida esa "в" dan so'ng "и" yoziladi.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda - ulla aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi.

13. Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra минг боши, ўн боши, сўз боши kabi so'zlar ajratib yoziladi.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi.

14. Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra еру осмон, ору номус, туну кун, кечаю кундуз, ёшу қари, қўю қўзи

kabi juft so'zlarda defis (chiziqcha) qo'yilmaydi.

Lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra ularning qismlari orasida -u(-yu) bog'lovchisi kelsa, shu elementlardan oldin chiziqcha qo'yiladi: do'st-u dushman, yosh-u qari kabi.

15) Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida yildan-yilga, ko'pdan-ko'p tipidagi birliklar juft so'zlar doirasida qaralgan, shu bois ularning komponentlari orasida chiziqchaning yozilishi qoidalashtirilgan.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalarning komponentlari, shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib (chiziqchasiz) yoziladi.

16) Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida izofali so'zlarning (нуқтаи назар, ойнаи жаҳон, дарди бедаво) ajratib yozilishi nazarda tutilgan.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu qoidaga bitta o'zgarish kiritilgan: yangi yozuvda imloda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga -i shaklida (dardi bedavo), unli bilan tugagan so'zlarga esa -yi shaklida qo'shiladi: nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi.

17. Ayrim so'zlar esa oldin fonetik yozuv bo'yicha yozilgan bo'lsa, yangi alifboda morfologik yozuvda yoziladigan bo'ldi: эрталабки- ertalabgi, дастлабки-dastlabgi

18. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosining "Ko'chirish qoidalari" da rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida berilmagan quyidagi qoidalar bor:

O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:



1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: slin-drik, tran-sport, in-gliz kabi.

Lotin alifbosi asosidagi o'zbek alifbosidagi imlo qoidalariga muvofiq yoziladigan ayrim so'zlarni eski imlo qoidalariga asosan yozib qo'yamaslik uchun,

albatta, yangi imlo qoidalariga (1995-yil 24-avgust) bilan tanishib chiqish shart.

Yozuvda ko'chish va tutuq belgisini farqlab ishlatishimiz lozim: O'tkir (Ootkir) emas O'tkir, ya'ni kishi o'z ismini xato yozib qo'yishi mumkin. Davlatimiz nomini yozayotganda ham e'tiborli bo'lish zarur: O'zbekiston emas O'zbekiston

Umuman olganda to'g'ri yozish savodxonlik asosi hisoblanadi.

References:

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fonetika-fonologiya. Grafika. Imlo. Leksikologiya-semasiologiya. Leksikografiya. I qism Qarshi. 2004.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent. 2002.
3. Ўзбек тилининг имло луғати. Н.М.Маҳмудов таҳрири остида –Тошкент: Akademy Nashr, 2013.
4. Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. Ўқув қўлланма. –Тошкент. 2007.
5. Hamrayeva Y. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan mashqlar to'plami. I qism (Fonetika. Grafika. Imlo), Qarshi, Nasaf. 2005.
6. Shoabdurahmonov SH. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. 1980.
7. Davidov Y. J. WORD FORMATION PATTERNS IN UZBEK LANGUAGE //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – C. 16-21.
8. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 245-247.
9. Nadim, H. M. (2019). Etnolingvistika va etnografik leksika haqida. Молодой ученый, (30), 147-149.